

**“O`QUV REJA, VAHO VA BAHOLASH” FANINI O`QITISHDA
MULTIMEDIALI ELEKTRON QO`LLANMADAN FOYDALANISH**

Shodmonov D., Po`latov J.***

**TATU SF “Raqamli va ta’lim texnologiyalari” kafedrasida katta o`qituvchisi*

shodmonovd1985@gmail.com

**TATU SF 4-bosqich talabasi*

Аннотация: Мультимедийные электронные пособия помогают сделать процесс обучения проще и интереснее. Их эффективность в основном выражается в улучшении понимания учащихся, помощи им лучше усваивать и усваивать информацию. Кроме того, они используются преподавателями и тренерами для управления и оценки процесса обучения.

Abstract: Multimedia electronic manuals help make the learning process easier and more interesting. Their effectiveness is mostly expressed in improving students' understanding, helping them learn and assimilate information better. In addition, they are used by teachers and trainers to manage and evaluate the learning process.

Kalit so`zlar: Interaktivlik, qiziqtirish, baholash, audiovisual, qulaylik, innovatsiya, adabiyot, o'zlashtirish

Ta'limni axborotlashtirish mavjud ta'lim vositalarini takomillashtirish va yangilarini yaratishga olib kelmoqda. Bu jarayon yangi ta'lim metodlarini, shakllarini yaratilishiga va masofaviy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq. Ta'lim jarayonini axborotlashtirishda asosiy diqqat samarali multimedial o`quv kurslarini ishlab chiqish va dars jarayonida keng foydalanishga qaratilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda tekstografik elektron mahsulotlar o`rniga interaktiv, virtual laboratoriyalar va multimedia manbalari(stend)ga boy elektron resurs qabul qilinmoqda [1].

Oliy va o`rta maxsus va umumiy ta'limda qo`llaniladigan darsliklarning interaktivligi, multimediya manbalariga boyligiga asosiy e'tiborni qaratishdan asosiy maqsad texnik va texnologik unsurlar va jarayonlarni ta'limda hosil qilish xarajatlarining kattaligidadir. Fanlar bo'yicha zaruriy ayrim uskunalar va moddiy-texnik bazalarni shakllantirishning imkoni yo`q. Ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning afzal va qulay imkoniyatlarni, shart-sharoitlarni yaratish va o`quv jarayonini avtomatlashtiruvchi dasturiy vositalarni yaratish, multimedial o`quv qo`llanma va metodik qo`llanmalar bilan ta'minlash vazifalari muhim ahamiat kasb etadi. Kompyuterlardan ko`proq foydalanish avtomatlashtirishga imkoniyat yaratdi, ya'ni o`qituvchi uslubiy qo`llanmalar yaratishda foydalaniladigan murakkab proseduralarni qisqartirishga olib keldi. Shuningdek, kompyuterda yaratilgan bir qancha elektron o`quv qo`llanmalar va uslubiy

qo'llanmalar o'quv jarayonida bir qancha yutuqlarga olib keldi. Birinchidan jarayonlarni yaratishni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni ixtiyoriy shakllarda kompyuterlarda saqlashdan iborat. Ikkinchidan, kompyuterda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash imkoniyati borligi va ularni qayta ishlashning mavjudligidir. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalarining yaratilishi shaxsiy foydalanuvchilarga xam katta imkoniyat yaratdi. Kompyuter texnologiyalar yangi tipdagi elektron o'quv qo'llanmalarning yaratilishiga olib keldi. O'quv jarayoniga kompyuter texnik vositalarini qo'llash shunday vaqtda samara beradiki, qachonki predmet soha mutaxassisi faqat axborotlarni tasvirlash, ma'lumotlar va bilimlar bazasi bilan chegaralanib qolmasa[2].

Ushbu maqolada multimediali elektron qo'llanma (MEQ) NucleApp dasturi yordamida yaratilgan bo'lib, bundan tashqari kurs komponentalarini yaratishda animatsiyalar uchun Flash, giperhavolalar uchun HTML, prezentasiyalar uchun Power Point, ma'ruza mashg'ulotlarini yaratish uchun Adobe reader, videoroliklar uchun camtasia Studio dasturlaridan foydalanildi.

Yaratilgan MEQ hozirgi kunda pedagogika bilim yurtlarida yangi o'quv fani sifatida o'rganilayotgan "O'quv reja, baho va baholash" fanini o'rganishda foydalaniladi.

MEQni ishga tushirish uchun mobil ilovani ishga tushiramiz, natijada MEQning bosh oynasi hosil bo'ladi(1-rasm).



1-rasm. MEQning bosh oynasi

Bosh oyna qo'yidagi bo'limlardan iborat:


- Fan resurslari – bu bo'limda fan bo'yicha barcha zaruriy hujjatlar joylashgan;
 - O'rgatuvchi – fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari video fayl ko'rinishida joylashtirilgan;
 - Zarur dasturlar – MEQdan to'liq foydalanish uchun zarur dasturlarni o'rnatish mumkin;
 - Mualliflar – bu bo'limda MEQni yaratgan mualliflar haqida ma'lumotlar keltirilgan;
 - Kirish – tugmasi orqali MEQning barcha tarkibiy elementlaridan foydalanish mumkin;
 - Chiqish – bu tugma orqali MEQdan chiqiladi;
- Fan resurslari bo'limiga kirganimizda quyidagi oyna hosil bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Fan resurslari oynasi

Bu oynadagi har bir mavzu ustida sichqoncha tugmasini bosganimizda mavzu bo'yich rejalari ochiladi va rejalarni har biridan ma'ruzalarning *.pdf formatdagi faylini yuklash va saqlash mumkin bo'ladi.

O'rgatuvchi bo'limini ishga tushirganimizda fan mavzulari bo'yicha tabaqalashgan taqdimotlar va MEQdan to'liq foydalanish uchun qo'shimcha dasturlarni o'rnatish oynasi ishga tushadi(3-rasm).



3-rasm. Mashg'ulot kontenti oynasi

Bosh oynadagi O'rgatuvchi bo'limini ishga tushirganimizda mavzular bo'yicha videodarslar joylashgan oyna hosil bo'ladi. Bu oynadan har bir mavzudan alohida videodarsga kirish mumkin. Videodarslar *.avi formatida yaratilgan[3]. Bu MEQning yana bir afzalligi elektron majmua bo'limida joylashgan internet manbalar bo'limi orqali fanning har bir mavzusi bo'yicha qo'shicha ma'lumotlarga to'g'ridan-to'g'ri internet tarmog'idagi manziliga murojat qilish imkoni yaratilgan.

Foydalanuvchi MEQdan foydalanganda mustaqil ravishda o'quv kursini to'liq o'zlashtirib, amaliy mashg'ulotlar, videodarslar, test sinovlarini o'tkazishi orqali fan bo'yicha bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'ladi[3]. MEQning bazasini fan o'qituvchisi yangilashi yoki keyingi versiyasini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шодмонов Даврон Абдувалиевич, Ахророва Феруза Оценка эффективности образовательной модели смешанного обучения // Вестник науки и творчества. 2021. №10 (70). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-obrazovatelnoy-modeli-smeshannogo-obucheniya> (дата обращения: 07.03.2024).
2. Djumayev S. N., Shodmonov D. A., Ortiqova N. E. Ta'limda mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari: Possibilities of Using Mobile Applications in Education //International journal of theoretical and applied issues of digital technologies. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 90-95.
3. Шодмонов Давронжон Абдувалиевич, Ибадуллаева Ф. Определение компетентности выпускников для дальнейшего выбора этапа образования с помощью алгоритма классификации // Бюллетень науки и практики. 2018. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-kompetentnosti-vypusknikov-dlya-dalneyshego-vybora-etapa-obrazovaniya-s-pomoschyu-algoritma-klassifikatsii> (дата обращения: 07.03.2024).